

## Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti



## SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb-sayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>

SHARQ MASH'ALI

**RAQAMLI ASR DAVRIDA KONFESSIYALARARO TOTUVLIKNI TA'MINLASH:  
ISLOM.UZ SAYTI MEDIKONTENTLARIDA BAG'RIKENGLIK MASALALARI****Shahzoda Abduraimova***Tayanch doktorant**O'zbekiston Xalqaro islom akademiyasi**Toshkent, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

**Kalit so'zlar:** media, bag'rikenglik, saytlar, internet, dinlararo totuvlik, "uz" domeni, islom.uz, maqolalar

**Annotatsiya:** Yurtimizda millatlar hamda dinlararo bag'rikenglikni mustahkamlash, jamiyatda diniy tolerantlikni ta'minlash ustuvor vazifa etib belgilangan. Sababi bag'rikenglik g'oyasi xilma-xil diniy e'tiqodga ega bo'lgan kishilarning bir zamin, bir vatan, olijanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashini anglatadi. O'zbekistonda 130dan ortiq millat hamda elat vakillarining bir qancha asrlardirki tinch-totuv yashab kelayotgani, bu sohada har yili amalga oshirilayotgan islohotlar bejizga emasligining yaqqol isbotidir.

Vatan tinchligi, yurt farovonligi, jamiyat hamjihatligi uchun esa, barcha birdek mas'uldir. Shu jumladan, media olamiga ma'lumot kirituvchi hamda oluvchi barcha foydalanuvchilar ham. So'nggi yillarda farovonlikka rahna soluvchi ko'plab yot g'oyalarning tarqalayotgani esa, har bir shaxsni yana sezgirlikni oshirishga undaydi.

Hozirgi kunda texnologiya hamda internetning hayotimizdagi roli sezilarli darajada mustahkamlandi. Ular nafaqat jamiyat, ijtimoiy hamda kundalik hayotda balki, professional va ilmiy hayotimizda ham o'ziga xos o'rinni egallaydi.

Ushbu maqolada veb-saytlarning, xususan "uz" domeni ostida faoliyat olib boruvchi rasmiy sahifalarning, diniy bag'rikenglikni saqlashdagi o'rni, vazifalari haqida so'z boradi. Qolaversa, dinlararo totuvlikni ta'minlashda veb-saytlardagi maqolalar ham tahlil qilinadi. Islom.uz

platformasi asosiy tahlil uchun tanlab olingan bo'lib, saytdagi mediakontentlarda bag'rikenglikning nayomon bo'lishiga katta urg'u berilgan.

Dunyodagi dinlarning barchasi ezgulik g'oyalariga tayanadi, u halollik, tinchlik, yaxshilik va do'stlik kabi bir qancha ezgu fazilatlarga asoslanadi. Har biri insonlarni halollik va poklik, mehr-oqibat, insonparvarlik va bag'rikenglikka da'vat etadi. Yurtimizda qadimdan turli e'tiqodga mansub millat va elatlar istiqomat qilib kelgan. 130 dan ziyod millat farzandlarining hur va ozod diyorda, tinchlik va osoyishtalik kayfiyatida yashashlari vatanimizning bag'rikenglik o'lkasi ekanining yorqin isbotidir. Uni saqlab turishda har bir yo'nalish, xususan media, dinshunoslik kabi sohalar ham mas'uldirlar. Aynan shu jihatdan olgandan maqola mavzusi o'zining dolzarbligini ko'rsatadi.

## ENSURING INTERFAITH HARMONY IN THE DIGITAL AGE: TOLERANCE ISSUES IN THE MEDIA CONTENT OF THE ISLAM.UZ WEBSITE

**Shahzoda Abduraimova**

*PhD student*

*International Islamic academy of Uzbekistan*

*Tashkent, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Media, tolerance, websites, internet, interreligious harmony, uz domain, islom.uz, articles.

**Abstract:** Strengthening interethnic and interreligious tolerance in our country, ensuring religious tolerance in society is a priority task. The reason is that the idea of tolerance means that people of different religious beliefs live together as partners and in harmony on the path of one land, one homeland, noble ideas and intentions. The fact that representatives of more than 130 nationalities and peoples have lived peacefully in Uzbekistan for several centuries is vivid proof that the reforms carried out every year in this area are not in vain.

It is known that the role of technology and the internet in our lives has increased significantly. It occupies a special place not only in society, public and everyday life, but also in our professional and academic life.

This article talks about the role and tasks of websites, especially official pages operating on the "Uz" domain, in maintaining religious tolerance. In addition, articles on websites are also analyzed for interfaith harmony. "Islam.uz" platform was chosen for the main analysis, with a great emphasis on the lack of tolerance in the media content on the site.

All religions of the world are based on the idea of virtue, which is based on several virtues such as honesty, peacefulness, kindness and friendship. Each calls people to

honesty and purity, kindness, humanity and tolerance. Since ancient times, our country has been home to nations and peoples of different faiths. The fact that children of more than 130 nationalities live in a free land, in an atmosphere of peace and tranquility, is a vivid proof that our country is a country of tolerance. Every direction, especially the media, religious studies is responsible for its maintenance. It is from this point of view that the topic of the article shows its relevance.

---

## ОБЕСПЕЧЕНИЕ МЕЖКОНФЕССИОНАЛЬНОГО СОГЛАСИЯ В ЦИФРОВУЮ ЭРУ: ВОПРОСЫ ТОЛЕРАНТНОСТИ В МЕДИАКОНТЕНТЕ САЙТА ISLAM.UZ

*Шахзода Абдураимова*

*Докторант*

*Международная исламская академия Узбекистана*

*Ташкент, Узбекистан*

---

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** толерантность, сайты, Интернет, межрелигиозное согласие, домен “уз”, islom.uz, статьи.

**Аннотация:** Укрепление межэтнической и межрелигиозной толерантности в нашей стране, обеспечение религиозной толерантности в обществе является приоритетной задачей. Причина в том, что идея толерантности означает, что люди разных религиозных убеждений живут вместе как партнеры и в гармонии на пути одной земли, одной родины, благородных идей и намерений. Тот факт, что в Узбекистане на протяжении нескольких столетий мирно проживают представители более 130 национальностей и народов, является ярким доказательством того, что проводимые ежегодно в этой сфере реформы не проходят даром.

Известно, что роль технологий и интернета в нашей жизни значительно усилилась. Оно занимает особое место не только в обществе, общественной и повседневной жизни, но и в нашей профессиональной и научной жизни.

В данной статье говорится о роли и задачах веб-сайтов, особенно официальных страниц, работающих на домене «Уз», в поддержании религиозной толерантности. Кроме того, статьи на веб-сайтах также анализируются на предмет межконфессионального согласия. Для основного анализа была выбрана платформа “Islam.uz”, при этом большой акцент был сделан на отсутствие толерантности в медиаконтенте на сайте.

Все религии мира основаны на идее добродетели, в основе которой лежат несколько добродетелей, таких как честность, миролюбие, доброта и дружба. Каждый призывает людей к честности и чистоте, добру, человечности и толерантности. В нашей стране с

древнейших времен проживали нации и народы, принадлежащие к разным вероисповеданиям. Тот факт, что дети более 130 национальностей живут на свободной земле, в атмосфере мира и спокойствия, является ярким доказательством того, что наша страна является страной толерантности. Каждое направление, особенно средства массовой информации, религиоведение несет ответственность за его поддержание. Именно с этой точки зрения тема статьи показывает свою актуальность.

---

## INTRODUCTION/ ВВЕДЕНИЕ/KIRISH

Bag'rikenglik atamasi, nafaqat respublikamizdagi balki, xalqaro miqyosdagi eng ko'p munozara qilinayotgan so'zlardan hisoblanishi bejizga emas. Buning yaqqol misoli respublika hamda jahon miqyosida qabul qilinayotgan hujjatlar orqali ham ko'rinishi mumkin. Birgina misol, xalqaro YUNESKO tashkiloti tomonidan dunyoda tinchlik, dinlar va konfessiyalararo muloqotni o'rnatish, millatlar va elatlar o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish borasida bir qator ishlar amalga oshirilib, hozirda bag'rikenglikka oid 70 dan ziyod xalqaro hujjatlar qabul qilingan. Ularning yorqin namunasi 1995-yil 16-noyabrda Parijda YUNESKO Bosh konferensiyasining 28-sessiyasida e'lon qilingan "Bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi"dir. Hozirda ushbu kun butun dunyoda "Xalqaro bag'rikenglik kuni" sifatida keng nishonlanadi.

O'zga xalqlar tili, urf-odatlar va an'alariga chuqur hurmat, ularning o'zligini saqlab qolish, madaniy-ma'rifiy ehtiyojlarini ro'yobga chiqarishga imkoniyat yaratish va har tomonlama yordam ko'rsatish bag'rikenglikning yorqin xususiyatlaridandir. Aynan mana shunday bag'rikenglik, sabr-bardoshlilik madaniyatimizning benazir namunalari saqlab qolish, asrlar sinovidan olib o'tish, kamol toptirish hamda o'zga madaniyatlarning ahamiyatli natijalari bilan boyitishga sharoit yaratdi.

Diyorimizdan yetishib chiqqan allomalarning asarlarida diniy bag'rikenglik bilan bog'liq qadriyatlarni targ'ib qiluvchi g'oyalari keng yoritib berilgan. Buyuk alloma, moturidiya aqidaviy yo'nalishi asoschisi Abu Mansur al-Moturidiyning asarlarida bayon etilgan bag'rikenglik g'oyalari bunga misol bo'la oladi. Jumladan, Moturidiy Qur'oni Karim oyatlarining tafsiriga bag'ishlangan, islom olamida juda keng tanilgan "Ta'vilot ahli sunna" asarida "Haj" surasi 40-oyat tafsirida: "Cherkov va sinagogalarni vayron etish man etiladi. Shuning uchun ham, musulmonlar yurtida shu davrgacha ular buzilmay saqlanib qolgan. Bu masalada ahli ilm orasida ixtilof yo'qdir", – deb qat'iy ta'kidlaydi.

Prezidentimizning "Diniy bag'rikenglik azal-azaldan o'zbek xalqi mentalitetining ajralmas qismi bo'lib kelgan. Tarixning murakkab davrlarida yurtimiz musulmonlari boshqa din vakillariga mehr-muhabbat va xayri saxovat ko'rsatib, beg'araz yordam va ko'mak berganlar" (Mirziyoyev Sh., 2018:451) degan so'zlari O'zbekistonda ham dinlararo bag'rikenglik hamda millatlararo totuvlik qanchalik muhim ekanini ko'rsatib beradi. Aynan shu sababdan, nafaqat ijtimoiy hayotdagi balki virtual hayotdagi bag'rikenglik ham muhim ahamiyat kasb etadi.

"Bag'rikenglik" tushunchasining ta'riflari soni doimiy ravishda yangilanadi. Bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasining 1-moddasida bag'rikenglikka quyidagicha ta'rif berilgan: "Bag'rikenglik – bu yon berish, kamsitish yoki indulgensiya emas. Tolerantlik, eng avvalo, insonning umuminsoniy huquqlari va boshqalarning asosiy erkinliklarini tan olishdan kelib chiqadigan faol munosabatdir. Bag'rikenglik alohida shaxslar, guruhlar va davlatlar tomonidan amalga oshirilishi kerak. Bag'rikenglik – bu bizning dunyomizdagi turli boy madaniyatlarni, o'zini ifodalashning va insonning alohidaligini namoyon qilishning xilma-xil usullarini hurmat qilish, qabul qilish va to'g'ri tushunishni anglatadi. Uni bilim, samimiyat, muloqot va hurfikr, vijdon va e'tiqod vujudga keltiradi. Bag'rikenglik bu turli-tumanlikdagi birlikdir..."

Dinshunoslikdagi har bir o'rganilayotgan masalalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-avgustdagi F-5024-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi va 2018-yil 16-apreldagi PF-5416-son "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, 2019-yil 4-sentabrdagi PQ-4436-son "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2021-yil 5-iyuldagi O'RQ-699-son "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonuni hamda 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida belgilab berilgan vazifalarni bajarishga qaratilgan tizimli ishlarning muayyan yo'nalishlariga bevosita bog'liq. Shu jumladan media makondagi diniy ma'lumotlarni tahlil qilish ham aynan shular jumlasidandir.

1990-yillarning o'rtalaridan diniy tashkilotlarning, jumladan, islomiy tashkilotlarning veb-saytlari kibermakanni muvaffaqiyatli o'rganmoqda. Ushbu kuchli axborot kommunikatsiya tizimidan diniy ta'limotlarni tarqatishda faol foydalanilmoqda. Ma'naviy madaniyat, bag'rikenglik va xavfsizlik darajasi ko'p jihatdan islom dini haqidagi ma'lumotlarning mazmuni va uning kibermakonda to'g'ri talqin etilishiga bog'liq bo'lib, xalqaro terrorizm va ekstremizm omillaridan biri sifatida jaholatga qarshi kurash ham dolzarb vazifadir.

O'zbekistonda din sohasidagi davlat siyosati dunyoviylik va dindorlikning uyg'unligi bilan ajralib turadi. Bu islomiy saytlar interaktiv faoliyat ko'rsatayotgan zonadagi "uz" milliy domenidagi ma'lumotlarning mohiyatidan ham ko'rinadi. Og'zaki, yozma, rasm yoki videoli formatdagi mediakontent bo'lsin deyarli har birida diniy bag'rikenglik tamoyili o'zining muhimlik darajasini yo'qotmaydi. Quyidagi, "uz" domeni ostidagi veb saytlarning diniy bag'rikenglik hamda millatlararo totuvlikni saqlashdagi o'rni, nutqiy va yozma diniy materiallarning tahlili ko'rib chiqiladi.

#### **TADQIQOTNING USULLARI**

Maqoladagi ma'lumotlar nazariy, tarixiy va qiyoslash singari metodlar yordamida ochib berilgan. Qolaversa, xalqaro tan olingan ekspertlarning yondashuvlariga asosan tahlil qilingan. Amerikalik olim S.Liri (S.Liri.,1996:781-808) birinchilardan bo'lib ommaviy axborot vositalarining diniy jamoalar faoliyatidagi rolini tahlil qildi. Uning fikricha, internetning paydo bo'lishi, matbaa ixtirosi kabi dindorlikning o'sishi uchun ham inqilobiy voqea bo'lib xizmat qildi. Shu sababdan ham maqolada qo'llanilgan ommaviy axborotlardagi dinni obyektiv va subyektiv o'rganish muhim.

Ingliz professori G.Bekkerledj esa kibermakonda dinni o'rganish tendentsiyalarini tahlil qilgan olimlardan biri. O'zining tahlillari davomida u birinchidan, diniy ta'limotlarni internetda tarqatish yo'llarini o'rganish; ikkinchidan, virtual ziyoratlarni, individual ma'naviy izlanishlarni tashkil etish, virtual makonda birgalikda namoz o'qish uchun kiberkosmik vositalardan foydalanish; uchinchidan, Internetdan ommaviy foydalanishning diniy e'tiqod va amaliyotga ta'siri bo'yicha tadqiqotlar o'tkazgan. (Bekkerledj., 2005). Hamda maqolani yoritishda ushbu tadqiqotlardan foydalanilgan.

2001-yilda "Raqamli tarmoqlarda diniy to'qnashuvlar" birinchi xalqaro konferensiyasi bo'lib o'tdi, uning asosiy e'tibori internetda diniy jamoalar faoliyati, internetda dindorlik va marosimlarning yangi ifodalarini o'rganish zarurati kabilar bo'ldi. 2017-yilda o'tkazilgan "Raqamli transformatsiyalar va global jamiyat" ikkinchi xalqaro konferensiyasi siyosatdagi kibermakon va axborot texnologiyalarining ijtimoiy-texnik jihatlari, inson hayotining turli sohalarida, jumladan, diniy sohada yangi axborot texnologiyalari ta'sirida xulq-atvor amaliyotiga bag'ishlandi. Nikolay Daskalu o'zining "Kibermakondagi din" teologik tadqiqotida dinning Internetda mavjudligining asosiy jihatlarni tahlil qiladi, Internet cherkovlari va onlayn jamoalarning e'tiqod va diniy xulq-atvoriga ta'sirini, zamonaviy jamiyatlarda foydalanuvchi mentalitetini, bitmas-tuganmas ma'lumot manbai sifatida internetning afzalliklari haqida bahs yuritadi, lekin ayni paytda ma'lum tahdidlarni ko'rsatadi.(N.Daskalu., 2013)

Olim Warburg esa dinning kibermakonda mavjudligiga oid tadqiqotning uch bosqichini tasvirlab berdi. Birinchi bosqichda kommunikatsiya texnologiyalari va din, yangi texnologiyalar va kibermakondagi diniy amaliyotlar o'rtasidagi munosabatlar o'rganiladi; zamonaviy kompyuter texnologiyalari ta'sirida din va madaniyatdagi o'zgarishlar. Ikkinchi bosqichda kibermakondagi diniy g'oyalarning o'zgarishi va yangilarining shakllanishi, diniy foydalanuvchilarning xulq-atvori, diniy o'ziga xoslik, virtual jamoalardagi guruhlarga mansublik masalalari o'rganiladi. Kibermakonda dinni o'rganishning uchinchi, zamonaviy bosqichida onlayn dinni o'rganishga qiziqish o'rganilgan.(M.Warburg., 2005-56)

Maqola, yuqorida keltirilgan Warburg, OLiri hamda Nikolay Doskalu singari olimlarning metodlari hamda yondashuvlari asosida yozilgan bo'lib: qiyoslash hamda tahlil qilish orqali ochib berilgan.

### **NATIJALAR MUHOKAMA**

Shariat hukmi bo'yicha musulmon mamlakatlarida yashovchi boshqa dinga e'tiqod qiluvchilarning barcha moddiy va ma'naviy huquqlari, ya'ni mol-mulki, hayoti, diniy e'tiqodi, urf-odatlar, tili, madaniy merosi dahlsizligi musulmonlar zimmasida bo'lgan. Hozirgi kunda O'zbekiston media makonida ham aynan shu qonun-qoidalarga amal qilgan holda tolerantlik saqlab turiladi. O'rta asrlardayoq musulmon xalqlari, jumladan, diyorimizda yashovchi xalqlar ham diniy murosa va bag'rikenglikning huquqiy asoslarini ishlab chiqib, hayotga tatbiq etganlar va ular hozirgacha o'z kuchini yo'qotmagan, deb ayta olamiz.

Burhoniddin Marg'inoniyning butun musulmon dunyosida o'rta asrlardan boshlab shu davrgacha islom qonunchiligi bo'yicha eng mo'tabar manba hisoblanuvchi "Hidoya" asarida "Chunonchi islomning beshta farzidan biri bo'lgan "Zakot" ni olishga islom diniga e'tiqod qiluvchilar haqli deb hukm chiqarilgan bo'lsa, boshqa dinga e'tiqod qiluvchilar ichida ham moddiy yordamga muhtoj kishilarga xayr-ehson, sadaqaning boshqa hamma turlari berilishi mumkin, deb hukm chiqariladi. Buning dalili Rasululloh (s.a.v)ning: "Barcha dinlarning ahllariga sadaqa beraveringlar", -degan hadislaridir ". Bundan ko'rinib turadiki, bag'rikenglik tushunchasi yangi tushuncha emas, balki asrlardirki biz bilan yashab kelmoqda.

Dinlararo bag'rikenglikni ta'minlashda veb-saytlarning o'rnini tahlil qilish jarayonida O'zbekistonning islom.uz hamda rivojlangan davlatlardan biri bo'lgan Germaniyaning islamische.zeitung saytlari tanlab olindi. Saytlar o'zinning foydalanuvchilari ko'pligi, qolaversa eng aktiv saytlar bo'lganligi sababli tanlab olindi. Tadqiqot natijasida ayon bo'ldiku, ikkala veb-sayt ham bag'rikenglikni boshqalarga hurmat va hamdardlik ta'limotiga asoslangan asosiy islomiy qadriyat sifatida ta'kidlaydi. Ular musulmonlar va boshqa din vakillari o'rtasida tinch-totuv yashashni ta'minlovchi dinlararo hamkorlik va hamjihatlik tashabbuslari namunalarini namoyish etadi. Ikkala platforma ham diniy murosasizlikdan kelib chiqqan ekstremizm va zo'ravonlikni qoralaydi. Dunyoviy jamiyat hisoblangan Germaniyada joylashgan Islamische-Zeitung.de sayti asosan: integratsiya masalalari, Yevropadagi musulmonlar duch kelgan yoki kelishi mumkin bo'lgan diniy kamsitishlar shu bilan bir qatorda musulmon va musulmon bo'lmagan jamoalar o'rtasidagi o'zaro tushunish va hurmat zarurligi ko'rib chiqiladi.

Asosan musulmonlar yashaydigan O'zbekistonda faoliyat yurituvchi Islom.uz sayti o'zbek jamiyatidagi turli islomiy talqin va iboralarga nisbatan bag'rikenglik tushunchasiga ko'proq urg'u beradi. Islamische-Zeitung.de saytidagi mediakontentlar kengroq auditoriyaga, jumladan, butun nemis jamiyatiga murojaat qilib, musulmon va musulmon bo'lmagan jamoalar o'rtasidagi tafovutni bartaraf etishga qaratilgan. Islom.uz birinchi navbatda o'zbek musulmonlariga qaratilgan bo'lib, ichki diniy muloqotlarga e'tibor qaratadi va musulmon jamiyatining o'zida hamjihatlik munosabatlarini targ'ib qiladi.

Islamische-Zeitung.de ko'pincha "bag'rikenglik" atamasini diniy urf-odatlar, madaniy ifodalar va siyosiy nutq kabi turli sohalarda qo'llashni targ'ib qilish maqsadida foydalanadi. Islom.uz sayti esa "hurmat", "tushunish" va "rahm-shafqat" kabi kengroq tushunchalardan foydalanishga moyil bo'lib, ularni dinlararo munosabatlar va ichki diniy muloqotlar muhokamasiga so'zsiz kiritadi. Islamische-Zeitung.de: Muallif Ahmet Toprak "Bag'rikenglik

zaiflik emas” sarlavhali maqolasida islomofobiyaning qoralaydi hamda adolat va rahm-shafqat kabi umumiy qadriyatlarga asoslangan dinlararo tushunishni ta’kidlaydi. U bag’rikenglikni shakllantirishning asosiy tamoyillari sifatida “Dinda majburlash yo’q” (2:256) kabi Qur’on oyatlarini keltiradi. Bu kabi maqolalar esa o’z navbatida nafaqat musulmonlar o’rtasida tolerantlikni balki musulmot bo’lmagan boshqa din va elat vakillariga nisbatan ham bag’rikeng bo’lishga targ’ib qiladi. Maqolalar ilmiy hamda ommabop bo’lganligi sababli ham, oddiy xalqqa qolaversa, ilmiy salohiyatga ega qatlam ichida ham o’z o’rniga ega bo’ladi hamda ta’sir qilmasdan qolmaydi.

Farqlar, ehtimol, har bir millatning tarixiy va ijtimoiy kontekstidan, maqsadli auditoriya nuqtai nazaridan va potentsial asosda yotgan teologik yoki mafkuraviy nuqtai nazardan kelib chiqadi. Ushbu nuanslarni tan olish islomiy ommaviy axborot vositalarida bag’rikenglikning turli yo’llari bilan namoyon bo’lishini tushunish va musulmon jamoalari va kengroq jamiyatlarda haqiqiy dinlararo muloqot va tushunishni rivojlantirish uchun juda muhimdir.

Islom.uz: Shayx Muhammad Yusuf “Musulmonlar o’rtasida o’zaro hurmatning ahamiyati” nomli maqolasida Islom dinidagi turli talqinlarni tushunish va hurmat qilish, tinchlik so’zlashuvini targ’ib qiluvchi payg’ambarlik an’analariga tayanish va keraksiz tortishuvlardan qochish zarurligini ta’kidlaydi. Islamische-zeitung.de: Frantsiyadagi Charlie Hebdo hujumlarini qoralagan maqolada tinch muloqot va barcha dinlarga hurmat muhimligi ta’kidlangan.

Ushbu qiyosiy tahlil Islamische-Zeitung.de va Islom.uz saytlarida bag’rikenglik haqidagi umumiy va aniq tushunchalarni ochib beradi. Ikkalasi ham bag’rikenglikni asosiy islomiy qadriyat sifatida ta’kidlasa-da, o’ziga xos kontekstlar va maqsadli auditoriyalar bu tushunchaning qanday ifodalanishi va qo’llanilishini shakllantiradi. Ushbu nuanslarni tan olish turli musulmon jamoalari va kengroq jamiyatlar o’rtasida haqiqiy dinlararo muloqot va tushunishni rivojlantirish uchun juda muhimdir. Kelajakdagi tadqiqotlar islomiy veb-saytlarning keng doirasini o’rganishi, ularning bag’rikenglik ko’rinishini shakllantirgan asosiy omillarni chuqurroq o’rganishi va ushbu onlayn nutqlarning dinlararo munosabatlar va ijtimoiy birlikka ta’sirini tahlil qilgan holda ularning ta’sir doirasini yanada oshirishi mumkin.

Islamische-zeitung.de va Islom.uz saytlarining qiyosiy tahlili shuni ko’rsatdiki, har ikkala veb-sayt ham bag’rikenglikni asosiy islomiy qadriyat sifatida ta’kidlasa-da, ularning o’ziga xos kontekstlari va maqsadli auditoriyalari ushbu tushunchani qanday ifodalashiga ta’sir qiladi. Ikkala veb-sayt ham diniy murosasizlikdan kelib chiqqan ekstremizm va zo’ravonlikni qoralaydi. Ular tinch-totuv yashashni rivojlantirishga qaratilgan dinlararo hamkorlik misollarini namoyish etadi.

Ushbu maqola raqamli asrda bag’rikenglik kontseptsiyasi bilan bog’liqlikdagi turli xil onlayn tasvirlarni o’rganishda qiyosiy nutq tahlilining ahamiyati hamda ularning jamiyatga ta’sirini ko’rib chiqish bilan bir qatorda uni tahlil qildi. Bu esa o’z navbatida keyingi tadqiqotlar til, media formati va mafkuraviy bog’lanish kabi omillarni hisobga olgan holda kengroq islom veb-saytlari va platformalarini o’rganishi mumkin. Bu kabi tadqiqotlar turli islom kontekstlarida bag’rikenglikning onlayn namoyishi rivojlanishini yanada to’liqroq tushunish imkonini beradi.

## XULOSA

Ma’lumki, 1995-yil BMT tomonidan 16-noyabr Xalqaro tolerantlik – (bag’rikenglik) kuni deya e’lon qilinib, bu xususda umumjahon miqyosida maxsus deklaratsiya ham qabul qilingan. O’zbekiston 185 ta davlat qatorida ushbu deklaratsiyaga qo’shilgan holda mamlakatda millatlararo totuvlik va barqarorlikni ta’minlashdagi muhim omil bo’lgan bag’rikenglik tamoyillarini ijtimoiy-ma’naviy hayotga tadbiiq etish borasida muhim amaliy tadbirlarni amalga oshirmoqda. Shu bilan bir qatorda, veb-saytlarda ham bag’rikenglik tushunchasiga alohida to’xtalgan holda, boshqa millat vakillarini behurmat qilmaslikka, ularning e’tiqodiga hurmat bilan yondashishga chaqirilmoqda. Yuqorida keltirilgan maqolalar bunga yaqqol misol bo’la oladi. Ularda millatlararo totuv, bag’rikeng yashash, tolerantlik bilan munosabatda bo’lish tushunchalari ufuurib turganini ko’rish mumkin.

1990-yillarning o'rtalaridan diniy tashkilotlarning, jumladan, islomiy tashkilotlarning veb-saytlari kibermakonni muvaffaqiyatli o'rganganini hisobga olsak, ularda diniy ekstremizm g'oyalari emas balki tolerantlik, bag'rikenglik tushunchalarini rivojlantirish asosiy masalalardan biriga aylandi. Ushbu tushunchalar nafaqat islom dinida bo'lmaganlar balki musulmon kishilar o'rtasida, qolaversa, islomiy tushuncha va talqinlarga nisbatan ham qo'llanila boshladi. Sababi, ushbu kuchli axborot kommunikatsiya tizimidan diniy ta'limotlarni, tushuncha va g'oyalarni tarqatishda faol foydalanilmoqda. Ma'naviy madaniyat, bag'rikenglik va xavfsizlik darajasi ko'p jihatdan islom dini haqidagi ma'lumotlarning mazmuni va uning kibermakonda to'g'ri talqin etilishiga bog'liq bo'lib, xalqaro terrorizm va ekstremizm omillaridan biri sifatida jaholatga qarshi kurash ham dolzarb vazifadir.

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, O'zbekistonda din sohasidagi davlat siyosati dunyoviylik va dindorlikning uyg'unligi bilan ajralib turadi. Bu islomiy saytlar interaktiv faoliyat ko'rsatayotgan zonadagi "uz" milliy domenidagi ma'lumotlarning mohiyatidan ham ko'rinadi. Og'zaki, yozma, rasm yoki videoli formatdagi mediakontent bo'lsin deyarli har birida diniy bag'rikenglik tamoyili o'zining muhimlik darajasini yo'qotmaydi. Asrlar davomida yirik shaharlarimizda masjid, cherkov va sinagogalar faoliyat ko'rsatib, turli millat va dinga mansub qavmlar o'z diniy amallarini erkin ado etib kelganlari sekin astalik bilan kibermakonga ham ko'chadi. Tariximizning eng murakkab, og'ir davrlarida ham ular o'rtasida diniy asosda mojarolar bo'lmagani, xalqimizning diniy bag'rikenglik borasida katta tajriba to'plaganidan dalolat beradi. Bu esa nafaqat O'zbekistonda, balki butun dunyoda totuvlik, tinchlik hamda hamdo'stlik ruhini ta'minlaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. (2018) "Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir" 2-jild. T. «O'zbekiston» NMIU.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi. (2017) 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. 15.08.2017-yil F-5024-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2017) "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 16.08.2017-yil PF-5416-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori (2019) "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida". 2019-yil 4-sentabr PQ-4436-son.
5. O'zbekiston Respublikasi Qonuni (2021) "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida". 2021-yil 5-iyul O'RQ-699-son.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2022) "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida". 2022-yil 28-yanvar PF-60-son.
7. O'Liri., : Religion in cyberspace: Discourse of religion in social networking sites // Academic Journal. 1996. № 64 (4). C.781–808.
8. El-Nawawy M., Khamis S.: Islam Dot com. Contemporary Islamic Discourses in cyberspace. New York: Palgrave Macmillan, 2009.
9. Erkan Erdemir: Online-Fatwas, Sunnah und Hadithe im Internet. Islamische Rechtsauskunft und Handlungsweisen, München, GRIN Verlag, 2012
10. Hojsgaard M. T., Warburg, M.: Religion and Cyberspace. New York : Rout, 2005. P. 56–71.
11. <https://islamische-zeitung.de/category/english/>
12. <https://islom.uz/maqolalar/6/1>